



TILSHUNOSLIKDA DO'STLIK KONSEPTI

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

E-mail: gulomovamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikda do'stlik konseptining ingliz va o'zbek maqollari ifodalanishining o'ziga xos jihatalri tavsif qilinadi.*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, maqol, konsept, obraz, analitik til, sinonimik qator, aglutativ til, allegorik vosita.*

Xalq ijodiyotining ko'pchilik janrlaridan, jumladan, maqollarda xalq jamiyatidagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o'z xususiyati bilan shunga mos keladigan turli narsalar (xayvonlar, o'simliklar, ularning mevalalari, jismlar, uy jihozlari kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari) obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib ular vositasida muayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lgan kishilarni obrazini gavdalandiradi. Aslida maqol so'zi arab tilidan olingan bolib hikmatli so'z, otlar so'zi kabi tarjima qilinib yuritiladi. Maqollarda barcha fikr bir umumiy ma'noga qaratiladi va har bir maqolda yashirin ma'no bo'ladi.

Ko'pincha maqollar o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Chunki shu orqali insonlarni tanqid qilish, ularni hayvonlar qushlar, o'simliklar orqali yaxshilikka da'vat etish yashiringan bo'ladi. Bu esa fan tilida allegorik vositalar deb yuritiladi. Lekin allegorik vositalarning yana bir jihati shuki, ular qaysidir ma'noda insonlarni boshqa bir vositalar orqali aks ettiradi. Maqollar ham mavzu jihatidan turli xil bo'lishi mumkin. Bunday mavzular ichiga vatan, do'stlik, muhabbat, vafo, hurmat va boshqalarni keltirish mumkin. Bu kabi mavzular ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham uchraydi. Xususan do'stlik mavzusida o'zbek tilida ko'plab namunalarni uchratish mumkin; Do'stsiz oshing tuzsiz boshing. Do'st yomon kunda bilinadi. Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas. Do'stlik so'zi tor ma'noda ikki inson o'rtasidagi munosabat bo'lsa, keng ma'noda oilalar, qishloqlar, qarindoshlar va yurtlar o'rtasidagi iliq



munosabatni ham bildiradi. Do'stlikdagi eng muhim fazilatlardan biri samimiylik, rostgo'ylik, vafo va, albatta, sadoqat hisoblaniladi. Bu to'g'risida bizning tilimizda salmoqli ijod namunalarini uchratish mumkin. Birgina A.Navoiy do'stlikni ulug'lab ko'plab misralar ijod qilgan. Do'stsiz insonni qurigan daraxtga, joni yo'q tuproqqa tenglagan. Do'stlik shunday ne'matki, u insonni ruhan va jismonan kamolotga boshlaydi. Xususan;

1. O'zaro hurmat
2. Rostgo'ylik
3. Do'stining kamchiliklarini ayta olish
4. Har qanday holatda ham do'st yonida bo'lish
5. Orzu umidlarni ozaro hurmat qilish
6. Moddiy va ma'naviy narsalarni hech qachon ayamasklik

Yana bir holat borki, do'stlik ahillik, birodarlik so'zlari bilan sinonimik qatorda turadi va ba'zi holatlarda ular bilan almashinib ham qo'laniladi. Do'stlik ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi; biri chin do'stlik bo'lsa, ikkinchisi yolg'on do'stlik ya'ni qandaydir manfaat yuzasidangina qurilgan rishta sanaladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda bir biriga yaqin bo'lgan do'stlik to'grisidagi maqollarni topish mumkin. Bu ikki til maydon jihatdan, kelib chiqish jihatidan umuman aloqador emas, xatto, tilshunoslik tomondan ham ingliz tili analitik til guruhiga o'zbek tili aglutinativ til guruhiga kiradi. Ammo maqollar va iboralarda ma'nosi bir xil bo'lgan jihatlar, umumiyliklarni ko'rish mumkin. A good friend is my nearest relation - yaxshi do'st uzoq qarindoshdan yaxshi. Ushbu maqolda ham aynan bir xil bo'lmasa ham ma'no yaxlitligi bor. Bu maqol orqali mehirsiz qarindoshlardan bittagina sodiq do'st yaxshi degan ma'no namoyon bo'ladi. The best mirror is my old friend - do'st do'stning oynasi. Darhaqiqat, do'stlar bir- birini ko'zgusidir. Kamchiliklarni yashirish, ularni to'g'rilash, yaxshi kunda xursand bo'lish- bu albatta chin do'stlik nishonasidir. Yana ko'plab ingliz tilidagi do'stlik haqidagi maqollarni misol sifatida keltirish mumkin. -Old friend and old wine are best. -Only your real friends tell you when your face is dirty. -Friendship is one mind in two bodies. -Faithful friend is better than gold. -Friendship that flames goes out in a flash. [3, 161] Ba'zi maqollarda do'stlik konseptini to'g'ridan to'g'ri



ifoda qilinmagan. Aytib o‘tilgan hislatlar bu holatda topib olish mushkul. Masalan: The enemy of my enemy is my friend. (Dushmanimning dushmani mening do‘stimdir.) [1, 159]. Bu yerda ma’no antonimik uslub bilan ifodalanib, xuddi mataematik xisob qonuniyati singari ikki noijobiylikning munosabati ijobiylikka olib kelyapti. Bu kabi misollar har ikkala tilda ham talaygina bo‘lib, ular doim keng iste’molda bo‘lib kelgan. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillari ham juda maqollarga boy hisoblanadi. Har bir til alohida bo‘lgani bilan uning tarbiyaviy ahamiyati bir xil bo‘ladi. Qiyosiy tilshunoslik, tarix ba boshqa fanlarning tajribalarning ham ahamiyatli jihati shu kabi o‘xshashlik va farqli tomonlarni izlab topish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулова, Р. Б. (2020). Она тили фанини ўқитишда иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш ва уларнинг нутқ маданиятларини оширишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ta'lim, fan va innovatsiya, 1(2), 37-40.

2. Уктамов, Х. Ф. (2017). Корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлик тизимини ташкил этишнинг назарий асослари “Ўзбекистон иқтисодиётининг инноватцион ривожланиши доирасида ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солишнинг долзарб муаммолари” мавзусида республика илмий-назарий конференцияси 2017 йил 14-декабр, Тошкент ш. Тошкент давлат иқтисодиёт университети.

3. Nasrullayevich Khasanov, K., Alisherovna Baratova, D., Fakhriddinovich Uktamov, K., & Bokhodirovna Abdusattarova, D. (2021, December). Improving the practice of attracting financial resources from the international capital market to the corporate sector of the economy. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 718-727).

4. Dwijendra, N. K. A., Jalil, A. T., Abed, A. M., Bashar, B. S., Al-Nussairi, A. K. J., Hammid, A. T., ... & Uktamov, K. F. (2022). Improving the transition capability of the low-voltage wind turbine in the sub-synchronous state using a fuzzy controller. Clean Energy, 6(4), 682-692.



5. Tukhtabaev, J. S., Botirov, E. X., Xasanov, N., Uktamov, K. F., & Rakhimov, I. I. (2021, November). Prospects for the establishment and development of fat clusters in food safety. In Science, Education and Innovations in the Context of Modern Problems Conference, Baku, Azerbaijan (Vol. 4, No. 2, pp. 113-128).

6. Уктамов, Х. Ф. (2020). COVID-19 пандемияси шароитида аҳолини иш билан таъминлаш йўллари.“.

7. Akbarovich Yadgarov, A., Khotamov, I., Fakhriddinovich Uktamov, K., Fazliddinovich Mahmudov, M., Turgunovich Yuldashev, G., & Ravshanbek Dushamboevich, N. (2021). Prospects for the Development of Agricultural Insurance System. *Alinteri Journal of Agriculture Sciences*, 36(1), 602-608.

8. Sari, A., Abdelbasset, W. K., Sharma, H., Opulencia, M. J. C., Feyzbaxsh, M., Abed, A. M., ... & Uktamov, K. F. (2022). A novel combined power generation and argon liquefaction system; investigation and optimization of energy, exergy, and entransy phenomena. *Journal of Energy Storage*, 50, 104613.